O‘ZBEKISTONDA DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI VA UNING IJTIMOIY-SIYOSIY ZARURATI

A NEW STAGE IN STATE–SOCIETY RELATIONS IN UZBEKISTAN AND ITS SOCIO-POLITICAL NECESSITY

Muallif: Nazarov Akmal Narimanovich [1]
Affiliyatsiya: mustaqil izlanuvchi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23277110

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat va jamiyat munosabatlarining yangi bosqichi, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarining kuchayishi hamda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarining ijtimoiy-siyosiy zarurati tahlil qilinadi. Davlat organlarining axborotni yig‘ish, tahlil qilish, qayta ishlash va jamoatchilikka tezkor hamda tushunarli tarzda yetkazish salohiyati davlat boshqaruvi samaradorligi, jamoatchilik ishonchi va siyosiy legitimlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida yoritilgan. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, ochiq ma'lumotlar va interaktiv kommunikatsiya vositalarining davlat va fuqarolar o‘rtasidagi muloqotni rivojlantirishdagi o‘rni xususida to‘xtalib o‘tilgan. Maqolada zamonaviy davlat boshqaruvida axborot siyosatini takomillashtirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va fuqarolik jamiyati bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat va jamiyat munosabatlari, davlat boshqaruvi, axborot siyosati, ochiqlik, jamoatchilik bilan aloqalar, siyosiy legitimlik, raqamli boshqaruv, axborot madaniyati, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik ishonchi

ABSTRACT

This article analyzes a new stage in state–society relations in Uzbekistan, the strengthening of openness and transparency in public administration, and the socio-political necessity of developing effective information management skills. It examines the ability of public authorities to collect, analyze, process, and communicate information to the public in a timely and comprehensible manner as an important factor in ensuring the effectiveness of public administration, public trust, and political legitimacy. The article also considers the role of digital transformation, e-government, open data, and interactive communication tools in strengthening dialogue between the state and citizens. Particular attention is given to improving information policy, developing communication competencies, and establishing effective interaction between public authorities and civil society as important components of modern public administration.

Keywords: State–society relations, public administration, information policy, openness, public communication, socio-political stability, political legitimacy, digital governance, information culture, civil society, public trust

Davlat boshqaruvi organlarining axborot bilan ishlash koʻnikmasi zamonaviy siyosiy va ma'muriy boshqaruv tizimining eng muhim funksional mezonlaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. XXI asrda axborot oddiy ma'lumotlar yigʻindisi yoki kommunikativ vosita boʻlib qolmay, balki davlat barqarorligi, siyosiy legitimlik, ijtimoiy ishonch, xavfsizlik hamda jamiyatning institutsional uygʻunligini ta'minlovchi strategik resursga aylandi. Shu jihatdan qaralganda, davlat boshqaruvi organlarining axborotni yigʻish, qayta ishlash, tahlil qilish, uzatish, saqlash va undan samarali foydalanish koʻnikmalari mamlakat taraqqiyoti hamda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muvozanatning muhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, Oʻzbekiston sharoitida davlat va jamiyat munosabatlarining yangi bosqichga oʻtayotgani, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarining davlat siyosati darajasiga koʻtarilgani, fuqarolik jamiyati institutlari faolligining ortib borayotgani axborot bilan ishlash madaniyatini davlat boshqaruvining markaziy komponentiga aylantirdi.

Davlat boshqaruvi tizimi oʻz mohiyatiga koʻra murakkab kommunikativ mexanizm hisoblanadi. Unda qaror qabul qilish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, prognozlash va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish funksiyalarining barchasi axborot oqimlari bilan chambarchas bogʻliqdir. Axborotning sifati, tezkorligi va haqqoniyligi boshqaruv samaradorligini belgilaydi. Chunki zamonaviy boshqaruvning muvaffaqiyati koʻp jihatdan davlat organlarining jamiyatdagi real vaziyatni toʻgʻri anglashiga, jamoatchilik kayfiyatini chuqur his qilishiga va ijtimoiy ehtiyojlarni aniq tahlil qila olishiga bogʻliq. Shu ma'noda axborot bilan ishlash koʻnikmasi texnologik malaka boʻlish barobarida siyosiy tafakkur, strategik fikrlash va kommunikativ kompetensiyaning ham ifodasidir.

Oʻzbekistonda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalash jarayonlari aynan axborot siyosatini takomillashtirish bilan uzviy bogʻliq holda rivojlanmoqda. Soʻnggi yillarda “xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil asosida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat boshqaruvida axborot ochiqligini kuchaytirishga xizmat qildi. Elektron hukumat tizimining joriy qilinishi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, ochiq ma'lumotlar platformalarining shakllanishi, virtual qabulxonalar hamda interaktiv xizmatlarning kengayishi davlat organlari va fuqarolar oʻrtasidagi kommunikativ masofani qisqartirdi. Natijada davlat apparati faoliyatida axborot almashinuvi bir tomonlama buyruqbozlik mexanizmidan ikki tomonlama ijtimoiy muloqot shakliga oʻta boshladi.

Axborot bilan ishlash koʻnikmasining ijtimoiy-siyosiy zarurati, avvalo, davlatning legitimligi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlash bilan izohlanadi. Har qanday siyosiy tizimda aholining davlatga boʻlgan ishonchi asosan axborot siyosatining ochiqligi va haqqoniyligiga bogʻliq boʻladi. Agar davlat organlari tezkor, xolis va tushunarli axborot bera olsa, jamiyatda mish-mishlar, dezinformatsiya va ijtimoiy xavotir darajasi kamayadi. Aksincha, axborot vakuumi ijtimoiy beqarorlik, norozilik kayfiyati va siyosiy ishonchsizlikni kuchaytiradi. Shu sababli davlat boshqaruvi organlarining axborot bilan ishlash malakasi mamlakat ichki barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida axborot makoni geosiyosiy raqobat maydoniga aylangan. Raqamli texnologiyalar va internetning ommalashuvi natijasida milliy chegaralar axborot oqimlari oldida nisbatan ochilib bormoqda. Bu esa davlat boshqaruvi organlaridan nafaqat ichki kommunikatsiyani samarali tashkil qilishni, balki tashqi axboriy tahdidlarga qarshi mafkuraviy va strategik barqarorlikni ham talab etmoqda. Oʻzbekiston misolida qaralganda, turli xalqaro axborot

platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va virtual kommunikatsiya vositalarining ta'siri ortib borayotgan bir sharoitda davlat organlarining professional axborot siyosatini yuritishi milliy manfaatlarni himoya qilishning muhim shartiga aylandi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, pandemiya davrida davlat organlarining doimiy brifinglar, ommaviy murojaatlar va elektron platformalar orqali axborot berishi jamiyatdagi vahimani kamaytirish va fuqarolarni safarbar qilishda muhim rol o‘ynadi. Demak, axborot bilan ishlash ko‘nikmasi faqat texnik boshqaruv elementi bo‘libgina qolmay, balki ijtimoiy psixologik barqarorlikni saqlovchi vosita hamdir.

Ochiq axborot muhiti fuqarolarning siyosiy faolligini oshiradi, davlat qarorlarini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadi va boshqaruv ustidan ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi. Shu ma'noda O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari va blogerlik institutining faollashuvi davlat organlarini axborot siyosatida yanada mas'uliyatli bo‘lishga undamoqda. Endilikda davlat organlari faqat buyruq beruvchi tizim emas, balki jamoatchilik bilan uzluksiz muloqot olib boruvchi kommunikativ institut sifatida shakllanmoqda.

Axborot bilan ishlash ko‘nikmasining muhim jihatlaridan biri tahliliy kompetensiyadir. Zamonaviy davlat boshqaruvi faqat statistik ma'lumotlarni yig‘ish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy kayfiyatni prognoz qilish, xavf va tahdidlarni oldindan aniqlash, strategik rejalashtirish va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilishni talab qiladi. Shu bois O‘zbekistonda analitik markazlar, situatsion monitoring tizimlari va raqamli boshqaruv platformalarining shakllanishi davlat boshqaruvida yangi sifat bosqichini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon boshqaruvni intuitiv qarorlardan ilmiy asoslangan boshqaruv modeliga olib o‘tmoqda.

Biroq axborot bilan ishlash ko‘nikmasining rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Ayrim hollarda davlat organlarida axborotga yopiq munosabat, byurokratik tafakkur, ma'lumotlarni yashirishga moyillik yoki jamoatchilik bilan kommunikatsiyaning sustligi kuzatiladi. Bu esa ishonchsizlikni kuchaytiradi va davlatning ijtimoiy legitimligiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli davlat xizmatchilarining kommunikativ savodxonligini oshirish, axborot etikasi va media madaniyatini rivojlantirish, ochiqlik tamoyillarini institutsional darajada mustahkamlash zarur bo‘lib qolmoqda.

Davlat boshqaruvi organlarining axborot bilan ishlash ko‘nikmasi bugungi davrda davlatning samaradorligi, siyosiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi strategik omildir. O‘zbekiston sharoitida ushbu ko‘nikma davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, demokratik boshqaruvni rivojlantirish, milliy xavfsizlikni ta'minlash hamda modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Axborot bilan ishlash madaniyatiga ega bo‘lgan davlat boshqaruvi tizimi jamiyat ehtiyojlarini chuqur anglay oladi, fuqarolar bilan samarali muloqot o‘rnatadi va globallashuv sharoitidagi murakkab chaqiriqlarga moslashuvchan javob qaytara oladi. Davlat boshqaruvi tizimi zamonaviy bosqichda, avvalo, axborot oqimlarini aniqlik va tezkorlik bilan tahlil qilishga, shuningdek, axborotga asoslangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan faoliyat tarzida yuzaga kelmoqda.

Bugungi raqamli jamiyatda har qanday boshqaruv qarori u aholiga taalluqli bo‘ladimi yoki strategik xavfsizlikka oidmi, axborotga tayanuvchanlik darajasiga ko‘ra baholanadi. Bu haqda S.Y. Glazyev ta'kidlaydi: “Zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining yuragi – bu axborot ustidan intellektual nazoratdir. Davlatning

qudrati endilikda harbiy kuchda emas, balki axborot oqimlarini qay darajada nazorat qila olishida namoyon boʻlmoqda” [Glazyev, 2021: 45].

Axborot bilan ishlash madaniyati davlat boshqaruvi organlarining jamiyat bilan aloqalaridagi ishonch indikatoridir. Bunday xulosa G. Simonning “ma'lumotga asoslangan qarorlar nazariyasi”da ham ifodalanadi: “Boshqaruvning barqarorligi, avvalo, ma'lumotlar oqimining sifatiga bogʻliq. Bu esa faqat texnik infratuzilma emas, balki siyosiy va axloqiy mas'uliyat masalasidir” [Simon, 1997: 368].

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda axborot siyosatining strategik ahamiyati yanada ortdi. Axborot xizmatlari faoliyati davlat organlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yoʻlidagi muhim qadamlardan biri sifatida maydonga chiqdi. “Davlat organlarida axborot xizmatlari faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi Prezident Farmoni bu borada institut sifatida axborot bilan ishlash koʻnikmalarining yuridik asoslarini yaratdi. Ushbu hujjatda axborot xizmatining asosiy funksiyalaridan biri sifatida “fuqarolarning axborotga boʻlgan ehtiyojlarini tahlil qilish va unga javob berish” vazifasi belgilandi.

Axborot bilan ishlashning ijtimoiy-siyosiy zarurati, eng avvalo, fuqarolarning davlatga boʻlgan ishonchini shakllantirishda namoyon boʻladi. Bugungi sharoitda ishonch – bu faqat axborotga ega boʻlish emas, balki u orqali erkin mulohaza yuritish, fikr bildirish va qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish huquqidir. Bu holatni fransuz siyosatshunosi P. Rosanvallon quyidagicha izohlaydi: “Ishonchni ta'minlashda davlatning axborot berish darajasi emas, balki fuqarolarning axborot bilan qanday ishlay olishi hal qiluvchi omildir. Shu boisdan, axborot bilan ishlash madaniyati demokratik boshqaruvning yangi darajasidir” [Rosanvallon, 2011: 256].

Boshqaruv organlari faoliyatida axborot bilan ishlash faqat biryoqlama muloqot emas, balki interaktiv aloqaning institutsional mexanizmlarini ishga solish demakdir. Bu esa kommunikatsion platformalarni rivojlantirishni, ijtimoiy tarmoqlardagi faol ishtirokni, aholining real ehtiyojlarini tezkor aniqlashni va zarurat yuzaga kelganda siyosiy qarorlarni qayta koʻrib chiqishni nazarda tutadi.

Zamonaviy siyosiy-huquqiy muhitda davlat boshqaruvi organlarining faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri – bu ularning axborot bilan ishlash boʻyicha shakllangan institutsional koʻnikmalari, texnologik quvvati va kommunikativ kompetensiyasidir. Axborotning strategik resurs sifatida qaralishi, uni shunchaki texnik vosita emas, balki ijtimoiy-siyosiy legitimlik, boshqaruvning ochiqligi va jamiyat bilan muloqotning muhim instrumenti sifatida talqin etishga olib kelmoqda.

Mazkur jarayon, ayniqsa, Oʻzbekistonning yangi davrda demokratik boshqaruvga asoslangan ijtimoiy tuzumini shakllantirishda muhim oʻrin egallaydi. Haqiqatan ham, axborot bilan ishlash faqat ma'lumot uzatish emas, balki siyosiy jarayonlarni boshqarish, jamoatchilik kayfiyatini oʻrganish, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash va fuqarolarning boshqaruvga boʻlgan ishonchini mustahkamlash vositasidir. Bu fikrni amerikalik tadqiqotchi M. Castells quyidagicha izohlaydi: “Axborot tarmoqlari orqali hokimiyatni qayta shakllantirish imkoniyati paydo boʻlgan bir davrda, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlik davlat boshqaruvi organlarining axborot ustidan nazoratni yoʻqotmasligiga bogʻliqdir”.

Oʻzbekiston sharoitida davlat organlarining axborot bilan ishlashga doir yondashuvlari tobora raqamli boshqaruvga transformatsiyalashmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Davlat xizmatchisi uchun axborotni tezkor va toʻgʻri tahlil qilish, jamiyatning ehtiyojini ilgʻab olish va bu asosda amaliy chora koʻrish endilikda kundalik faoliyat mezoniga aylanishi kerak” [Mirziyoyev, 2021: 49]. Bu fikr axborotning siyosiy mas'uliyat kontekstida qaralayotganini anglatadi.

Axborot bilan ishlash koʻnikmasining ijtimoiy-siyosiy zarurati quyidagi jihatlarda yaqqol namoyon boʻladi:

- birinchidan, bu davlatning jamiyat oldida ochiqlik darajasini oshiradi;
- ikkinchidan, jamoatchilik nazoratini samarali tashkil qilishga zamin yaratadi;
- uchinchidan, davlat siyosatining legitimligini ta'minlaydi.

Siyosatshunos A. Tofflerning fikricha, “Axborotni boshqarish hokimiyatni boshqarish bilan teng kuchga ega boʻlib, endilikda siyosiy institutlar ushbu axborot resursini oʻzlashtira olmas ekan, ular legimitatsiya inqiroziga duch keladilar” [Toffler, 1980: 544].

Bundan tashqari, davlat boshqaruvi organlarining axborot bilan ishlash koʻnikmasi orqali xalq bilan bevosita va bilvosita kommunikatsiya qurishi, jamoatchilik fikrini oʻrganishi, qarorlar qabul qilishda ochiq axborot tahlillaridan foydalanishi bugungi kunning konstitutsiyaviy talabidir. Oʻzbekistonda 2022-yilda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida”gi Qonunda davlat xizmatchisining majburiyatlari qatorida “axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish” va “jamoatchilik bilan ochiq muloqot oʻrnatish” kabi tamoyillar alohida koʻrsatib oʻtilgan [6].

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida davlat idoralari faoliyati koʻproq “tarmoqli tuzilmalar” (networked governance) asosida shakllanmoqda. Ya'ni u vertikal hokimiyatdan koʻra, gorizontal axborot almashinuviga tayangan ochiq tizim sifatida rivojlanmoqda [Bauman, 2000: 228]. Shunday ekan, davlat xizmatchilarining axborot bilan ishlash madaniyati, ya'ni axborotni tanlash, tahlil qilish, interpretatsiya qilish, ommaga tushunarli va oʻz vaqtida yetkazish koʻnikmalari boshqaruv samaradorligini aniqlovchi mezonga aylanmoqda.

Ayniqsa, Oʻzbekistonda davlat boshqaruvi tizimining transformatsiyasi doirasida axborot siyosatini tubdan qayta koʻrib chiqish zarurati yuzaga keldi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning fikricha, “xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”. Ushbu yondashuv bevosita axborot bilan ishlash sifatini oshirishni, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobotdorligini ta'minlashni nazarda tutadi. Oʻzbekistonda bu boradagi yutuqlar orasida “Axborotlashtirish toʻgʻrisida”gi Qonun (2003-yil 11-dekabr, 560-II-son), “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi toʻgʻrisida”gi Qonun (2014-yil 5-may, №OʻRQ-369) mavjud boʻlib, ushbu me'yoriy hujjatlar axborot siyosatining huquqiy asoslarini belgilaydi. Shuningdek, 2021-yildan boshlab joriy etilgan “Ochiq budjet” tizimi orqali aholi davlat xarajatlari ustidan nazorat oʻrnatish imkoniyatiga ega boʻldi, bu esa davlat axborot siyosatining ijtimoiy-siyosiy transformatsiyaga xizmat qilayotganini anglatadi. Shu bois, davlat boshqaruvi tizimida axborot bilan ishlash nafaqat zamon talabi, balki jamiyatning siyosiy yetukligi, ishonchi va ijtimoiy birdamligi bilan chambarchas bogʻliqdir. U ijtimoiy nazoratning demokratiya mezonlariga asoslangan mexanizmiga aylanib bormoqda. Bugun axborot bilan ishlay olmagan boshqaruv legitimlik inqiroziga yuz tutadi, chunki jamiyat bilan aloqaning yoʻqolishi ishonch zanjirining uzilishi demakdir.

Davlat boshqaruvi axborot vositasida jamiyat bilan muloqotni yoʻlga qoʻyadi. Bu holat, ayniqsa, ochiq jamiyat tamoyillariga asoslangan davlatlar uchun dolzarbdir. Taniqli siyosatshunos M. Kastels bu borada shunday yozadi: “Axborot davlati oʻz hukmronligini axborot bilan ifodalaydi va legallashtiradi” [Kastels, 1996–1998].

Boshqacha aytganda, axborot – hokimiyatni markazlashtirish emas, balki uni qayta ijtimoiylashtirish vositasidir. Bugungi jamiyatda axborot bilan ishlashning asosiy zarurati fuqarolarning davlat bilan teng asosda muloqotga kirishish ehtiyoji bilan belgilanadi. Davlat boshqaruvi institutsional darajada bu ehtiyojga moslashmasa, ishonch inqirozi yuzaga keladi. Axborot bilan ishlash koʻnikmasi bu yerda kommunikativ mas'uliyat, axloqiy pozitsiya, siyosiy sezgirlik va prognozlash imkoniyatlarini oʻz ichiga oladi. Shu bois bu koʻnikma "yangi boshqaruv madaniyatining asosiy elementi" sifatida qaralmoqda [Sunstein, 2017: 328].

Oʻzbekistonning oʻziga xos siyosiy sharoitida bu koʻnikmaning ijtimoiy-siyosiy zarurati yanada chuqurroq namoyon boʻlmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Har bir davlat organi xalqqa xizmat qilishi, u bilan bevosita muloqotda boʻlishi, uning fikrini tinglashi kerak. Bu – davlat boshqaruvi tizimining yangicha mezonidir" [Mirziyoyev, 2021: 38]. Ushbu yondashuv davlat xizmatchisidan nafaqat texnik axborot savodxonligini, balki fuqarolik jamiyati bilan doimiy aloqada boʻlish madaniyatini ham talab qiladi.

Boshqaruv organlarining axborot bilan ishlashdagi salohiyati axborot tarqatishdagi tezkorlik bilan bir qatorda uni tahliliy asosda anglay olish va u orqali boshqaruvni moslashtira olishda namoyon boʻladi. Davlat idoralarida axborot koʻnikmalarining yetishmasligi aksar hollarda fuqarolarning davlatga boʻlgan ishonchining pasayishiga olib kelmoqda. Oʻzbekistonda bu boradagi yutuqlar sifatida "Davlat boshqaruvini raqamlashtirish strategiyasi" (2020–2025-yillar), "Ochiq ma'lumotlar portali"ning faoliyati, "virtual qabulxonalar", "e-ijro.gov.uz", "my.gov.uz" kabi raqamli axborot tizimlarining joriy qilinishini misol qilib keltirish mumkin. Shu boisdan ham davlat boshqaruvi axborot bilan ishlashni texnologik innovatsiyalar bilan birga gumanistik tamoyillar, ya'ni ochiqlik, javobgarlik va ishonch orqali amalga oshirmogʻi lozim. Aks holda, ma'lumotlar oqimi kuchaygan sari davlat bilan jamiyat oʻrtasidagi tafovut chuqurlashadi, bu esa demokratik transformatsiya jarayonlarini zaiflashtiradi.

Boshqaruv idoralari uchun axborot ustidan samarali ishlov berish – bu ijtimoiy holatni toʻgʻri baholash, ijtimoiy ehtiyojlarni sezish, siyosiy prioritetlarni aniqlash va eng muhimi, fuqarolar bilan muloqotda ochiqlikni ta'minlash demakdir. Ayniqsa, siyosiy qarorlar axborot tahliliga tayanmagan holda qabul qilinganda, ular real ijtimoiy ehtiyojlardan uzoqlashadi va bu esa boshqaruv samaradorligini susaytiradi. L. Floridi bu holatni "axborot boʻshligʻi" deb atab, u "faoliyatni ijtimoiy muvofiqlikdan uzib qoʻyuvchi xavfli epistomologik boʻshliqdir" deya izohlaydi [Floridi, 2011: 427]. Oʻzbekiston sharoitida davlat boshqaruvi organlarining axborot bilan ishlash koʻnikmasi yanada komplekslashib borayotganligini isloh qilingan qonuniy asoslar, axborot xavfsizligi strategiyasi va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dasturlarda koʻrish mumkin. Xususan, "Axborotlashtirish toʻgʻrisida"gi Qonun davlat organlarining axborot bilan ishlash majburiyatlarini aniq belgilab bergan holda, axborot ochiqligi va jamoatchilik ishtirokini siyosiy-huquqiy norma sifatida mustahkamlaydi.

Shunday ekan, davlat boshqaruvi tizimining ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash, boshqaruv sifatini oshirish va fuqarolar bilan chinakam muloqot oʻrnatish yoʻlida axborot bilan ishlash koʻnikmasi fundamental vosita hisoblanadi. Bu jihat har bir rahbar va xodimning siyosiy ongida mustahkam joy olmasa, zamonaviy boshqaruv strategiyalari muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Davlatni fuqarolar bilan

yaqinlashtiruvchi bu mexanizm bugungi kunning eng dolzarb siyosiy zarurati sifatida qaralishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Глазьев С.Ю. Управление развитием экономики: монография / С. Ю. Глазьев. – Москва: Издательство “Экономика”, 2021. – С. 45.
2. Simon H.A. Administrative Behavior: A Study of Decision-Making Processes in Administrative Organizations / H. A. Simon. – 4th ed. – New York: Free Press, 1997. – P. 368.
3. Rosanvallon P. Democratic Legitimacy: Impartiality, Reflexivity, Proximity / P. Rosanvallon. – Princeton: Princeton University Press, 2011. – P. 256.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 49.
5. Toffler A. The Third Wave / A. Toffler. – New York: William Morrow and Company, 1980. – P. 544.
6. O‘zbekiston Respublikasi. Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2022-yil 8-avgust, O‘RQ-788-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son.
7. Bauman Z. Liquid Modernity / Z. Bauman. – Cambridge: Polity Press, 2000. – P. 228.
8. Norris P. Digital Divide: Civic Engagement, Information Poverty, and the Internet Worldwide / P. Norris. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 303.
9. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture / M. Castells. – Oxford: Blackwell, 1996–1998. (Matndagi [15]-havolaga mos Kastels nazariyasi).
10. Sunstein C.R. Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media / C. R. Sunstein. – Princeton: Princeton University Press, 2017. – P. 328.
11. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 38.
12. Floridi L. The Philosophy of Information / L. Floridi. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – P. 427.